

MAHDUMI A’ZAM TA’LIMOTIDA BAG’RIKENGLIK VA MA’NAVİY KAMOLOTNING TA’LIM VA TARBIYA TRANSFORMATSIYASI (NAFS, RUH, QALB UYG’UNLIGI KONTEKSTIDA)

Uraqov Nodirbek Boboqulovich

Samarqand Agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti

Raqamli texnologiyalar, turizm va gumanitar fanlar kafedrasasi assistenti

E-mail: u-nodirbek@yandex.com

Tel: +998 946123479

ORCID: 0009-0006-0763-8279

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21130916>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Mahdumi A’zam Kosoniy ta’limotida bag’rikenglik va ma’naviy kamolot masalalarining falsafiy hamda tasavvufiy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mutafakkirning nafs, ruh va qalb haqidagi qarashlari inson kamolotining muhim omillari sifatida yoritiladi. Shuningdek, Mahdumi A’zam asarlarida aks etgan ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning zamonaviy ta’lim va tarbiya transformatsiyasidagi o’rni ochib beriladi. Muallif tasavvufiy antropologiya asosida yoshlar tarbiyasida bag’rikenglik, insonparvarlik va ma’naviy mas’uliyatni rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslaydi. Tadqiqot natijasida Mahdumi A’zam merosining Yangi O’zbekiston sharoitida ma’naviy-ma’rifiy siyosatni takomillashtirishdagi ahamiyati ko’rsatib beriladi.

Kalit so’zlar: Mahdumi A’zam, bag’rikenglik, ma’naviy kamolot, ruh, qalb, tasavvuf, Naqshbandiya, ta’lim transformatsiyasi, tarbiya, insonparvarlik, ma’naviyat.

Аннотация. В статье анализируются философские и суфийские основы толерантности и духовного совершенствования в учении Махдumi Аъзама Косани. Особое внимание уделяется взаимосвязи понятий нафс, рух и калб как основным факторам формирования совершенной личности. Исследуется значение духовно-нравственных ценностей, отражённых в трудах мыслителя, в условиях трансформации современного образования и воспитания. Обосновываются механизмы формирования толерантности, гуманизма и духовной ответственности молодёжи на основе суфийской антропологии. Показано значение наследия Махдumi Аъзама для совершенствования духовно-просветительской политики Нового Узбекистана.

Ключевые слова: Махдumi Аъзам, толерантность, духовное совершенство, дух, душа, суфизм, Накшбандия, трансформация образования, воспитание, гуманизм, духовность.

Abstract. This article analyzes the philosophical and Sufi foundations of tolerance and spiritual perfection in the teachings of Mahdumi A’zam Kosoni. Particular attention is paid to the concepts of nafs, spirit and heart as the key components of human perfection. The study explores the role of spiritual and moral values reflected in the thinker's works within the transformation of modern education and upbringing. Based on Sufi anthropology, the mechanisms of developing tolerance, humanism and spiritual responsibility among young people are scientifically substantiated. The article also highlights the significance of Mahdumi A’zam’s heritage in improving the spiritual and educational policy of New Uzbekistan.

Keywords: Mahdumi A’zam, tolerance, spiritual perfection, spirit, heart, Sufism, Naqshbandiyya, educational transformation, upbringing, humanism, spirituality.

XXI asrda globallashuv jarayonlari, axborot oqimining keskin ortishi va madaniyatlararo muloqotning jadallashuvi insonning ma’naviy dunyosiga yangicha talablarni qo’ymoqda. Bunday sharoitda bag’rikenglik, o’zaro hurmat, ijtimoiy hamjihatlik va ma’naviy yetuklik kabi fazilatlar jamiyat barqarorligining muhim omiliga aylanmoqda. Shu bois milliy ma’naviy merosni zamonaviy ta’lim va tarbiya tizimi bilan integratsiyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Markaziy Osiyo tasavvuf tafakkurining yirik namoyandasi Mahdumi A’zam Kosoniy (1461–1542) o’zining tasavvufiy-falsafiy qarashlari bilan inson kamoloti, axloqiy poklanish va jamiyatdagi bag’rikenglik munosabatlarini chuqur tahlil qilgan mutafakkirlardan biridir. Uning “Risolai bayoni silsila”, “Risolai sharhi ruboiyot”, “Risolai voqeani haqqoniya”, “Asror un-nikoh” kabi asarlarida insonning ichki olamini takomillashtirish orqali jamiyatni ma’naviy yuksaltirish g’oyasi markaziy o’rin egallaydi. Bugungi kunda Yangi O’zbekistonda amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlar, yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, diniy bag’rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash vazifalari Mahdumi A’zam merosini zamonaviy pedagogik va falsafiy nuqtayi nazardan qayta o’rganishni talab etmoqda. “Mamlakatimizda diniy erkinlik, millatlararo hamjihatlik borasida ham vaziyat tubdan yaxshilandi. Bu sohada faoliyatimizning o’zagini ‘Bag’rikenglik va millatlararo totuvlik – barqaror taraqqiyot kafolati’, degan ulug’ va ezgu g’oya tashkil etadi” [1-51].

Mahdumi A’zam Kosoniy ta’limotida inson faqat biologik mavjudot emas, balki ilohiy mohiyatga ega bo’lgan ma’naviy mavjudot sifatida talqin qilinadi. Uning qarashlariga ko’ra, insonning haqiqiy kamoloti tashqi bilimlar bilan emas, balki ichki dunyosini poklash va ruhiy yuksalish orqali amalga oshadi [2]. Mahdumi A’zam Kosoniy ta’limotida murshid–murid munosabatlari ma’naviy kamolotga erishishning eng muhim vositalaridan biri sifatida talqin etiladi. Mutafakkirning “Risolai bayoni silsila”, “Risolai sharhi ruboiyot”, “Risolai voqeani haqqoniya”, “Odob us-solikin” va “Murshid us-solikin” asarlarida murshidning nafaqat diniy ustoz, balki ma’naviy tarbiyachi va ruhiy yo’l ko’rsatuvchi sifatidagi o’rni alohida ta’kidlanadi [3]. Mutafakkir inson tabiatini uch asosiy unsur ya’ni nafs, ruh, qalb orqali izohlaydi. Nafs insonning moddiy mayllari va hissiy ehtiyojlarini ifodalaydi. Ruh ilohiy mohiyatning in’ikosi sifatida insonni ezgulikka chorlaydi. Qalb esa ushbu ikki kuch o’rtasidagi muvozanat markazi hisoblanadi. Tasavvufiy antropologiyaga ko’ra, insondagi barcha axloqiy fazilatlar qalbning poklanishi natijasida shakllanadi. Mahdumi A’zam qalbni “ma’rifat oynasi” sifatida talqin qilib, uning pokligi insonning Allohga yaqinlashuvi va jamiyatdagi ezgu faoliyatining manbai ekanligini ta’kidlaydi [4].

Tasavvufiy pedagogikada tarbiyaning asosiy mexanizmlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Suhbat metodi - murshid va murid o’rtasidagi ma’naviy muloqot.
2. Mushahada metodi - muridning o’z ichki dunyosini kuzatishi.
3. Muhosaba metodi - o’z xatti-harakatlarini tahlil qilish.
4. Riyoziyat metodi – nafsni tarbiyalash orqali iroda mustahkamligini shakllantirish.
5. Zikr metodi – qalbni poklash va ruhiy uyg’onishni ta’minlash [5].

Mahdumi A’zam nazarida insonning o’z nafs bilan kurashi mustaqil ravishda kechadigan jarayon emas. Nafsning hiylalari va dunyoviy mayllarning murakkabligi sababli murid komillik sari yo’lda tajribali murshid rahbarligiga muhtoj bo’ladi [6]. Murid murshidga ko’r-ko’rona emas, balki ma’naviy ishonch va ichki intizom asosida ergashishi kerak. Mahdumi A’zam suhbat metodini tarbiyaning asosiy shakli sifatida baholaydi. Suhbat



jarayonida murshid o'zining shaxsiy namunasi orqali murid qalbiga ta'sir ko'rsatadi [7]. Shu bois tasavvufda murshid ma'naviy kamolotning metodologik markazi sifatida qaraladi. Mutafakkirning fikricha, murshid esa muridning axloqiy nuqsonlarini aniqlaydi, nafsiiy illatlarni bartaraf etishga yo'naltiradi, qalbni poklash usullarini o'rgatadi, ma'rifat yo'lidagi bosqichlarni tushuntiradi, ijtimoiy mas'uliyat va bag'rikenglik fazilatlarini shakllantiradi [8]. Mahdumi A'zam asarlarida nafsni jilovlash ma'naviy tarbiyaning birinchi bosqichi sifatida talqin qilinadi. Nafs insonni kibr, hasad, adovat va zo'rvonlikka undovchi omil sifatida baholanadi. Mutafakkir fikricha, bag'rikenglik avvalo insonning o'z nafsii ustidan g'alaba qozonishidan boshlanadi. Chunki nafs hukmron bo'lgan joyda murosasizlik, tajovuzkorlik va adolatsizlik yuzaga keladi. Aksincha, nafs tarbiyalangan shaxs boshqalarning fikrini hurmat qiladi, muammolarga sabr bilan yondashadi va ijtimoiy muvozanatni saqlashga intiladi. Bugungi kunda yoshlar orasida uchrayotgan radikalizm, agressiv xatti-harakatlar va virtual makondagi murosasizlik holatlarini bartaraf etishda tasavvufiy nafs tarbiyasi konsepsiyasi muhim nazariy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, Mahdumi A'zamning nafs haqidagi qarashlari zamonaviy pedagogikada emotsional intellekt, konfliktologik kompetensiya va axloqiy refleksiya tushunchalari bilan uyg'unlashadi. Bugungi zamonaviy pedagogikada ushbu tamoyillar mentorlik, refleksiv ta'lim, individual rivojlanish trayektoriyasi va kompetensiyaviy yondashuv shaklida namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan Mahdumi A'zam ta'limoti zamonaviy tarbiya nazariyasining ma'naviy-falsafiy asoslarini boyituvchi muhim manba hisoblanadi. Mahdumi A'zamning nafs, ruh va qalb haqidagi qarashlari zamonaviy ta'lim transformatsiyasi uchun konseptual model yaratish imkonini beradi. Ushbu modelning markazida insonning ma'naviy kamoloti va bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish g'oyasi turadi [9]. An'anaviy ta'lim tizimi asosan bilim berishga qaratilgan bo'lsa, Mahdumi A'zam ta'limotida tarbiyaning asosiy maqsadi komil insonni shakllantirishdan iboratdir. Komil inson esa bilim, axloq va ma'naviyat uyg'unligiga erishgan shaxs sifatida tavsiflanadi [10].

Mahdumi A'zam ta'limotida ruh insonning ilohiy mohiyatini ifodalovchi eng yuksak qadriyatdir. Ruhning pokligi insonning ma'naviy kamolot darajasini belgilaydi. Mutafakkirning fikricha, ruhiy yuksalish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: bular o'zini anglash, nafsni tarbiyalash, qalbni poklash, ma'rifatga erishish, jamiyat manfaatiga xizmat qilish. Bu bosqichlar bugungi zamonaviy ta'lim falsafasidagi “uzluksiz shaxsiy rivojlanish” konsepsiyasi bilan hamohangdir. Mahdumi A'zamning insonparvarlik g'oyalari insonning millati, dini yoki ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar hurmat qilinishini nazarda tutadi. Bu jihat uning bag'rikenglik haqidagi qarashlarini universal ahamiyatga ega falsafiy konsepsiyaga aylantiradi.

Mahdumi A'zam ta'limotida qalb insonning ma'naviy markazi hisoblanadi. Qalbning pokligi axloqiy yetuklikning asosiy mezon sifatida talqin etiladi. Tasavvufda esa qalb, mehr-muhabbat manbai, ma'rifat maskani, ilohiy haqiqatni idrok etish vositasi, axloqiy fazilatlar markazi hisoblanadi. Mutafakkir qalbni tarbiyalash orqali jamiyatdagi nizolar, ziddiyatlar va ma'naviy inqirozlarni bartaraf etish mumkinligini ta'kidlaydi. Bugungi pedagogik amaliyotda qalb tarbiyasi, empatiyani rivojlantirish, ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish, vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash, ma'naviy immunitetni kuchaytirish, bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirish kabi yo'nalishlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Mahdumi A’zamning pedagogik qarashlari Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ilgari surilgan “ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash” g‘oyasi bilan hamohangdir. Shu sababli uning merosi nafaqat tarixiy-tasavvufiy ahamiyatga, balki zamonaviy pedagogik va ijtimoiy-falsafiy ahamiyatga ham egadir. Mahdumi A’zamning ma’naviy kamolot va komil inson haqidagi qarashlari Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ilgari surilgan yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, ularning ma’naviy salohiyatini yuksaltirish vazifalari bilan mazmunan uyg‘unlashadi [1, 46–52-b.]. Yangi O‘zbekistonda ta’lim tizimi inson kapitalini rivojlantirish va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan. Bu jarayonda milliy ma’naviy merosning pedagogik imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Mahdumi A’zamning tasavvufiy qarashlari quyidagi jihatlari bilan zamonaviy ta’lim transformatsiyasiga xizmat qiladi: Birinchidan, shaxsga yo’naltirilgan ta’lim tamoyillarini ma’naviy jihatdan boyitadi. Ikkinchidan, yoshlarni ekstremistik va destruktiv g‘oyalardan himoya qiluvchi axloqiy immunitetni shakllantiradi. Uchinchidan, diniy bag‘rikenglik va fuqarolik madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi. To‘rtinchidan, ma’naviy yetakchilik va ijtimoiy mas’uliyat kompetensiyalarini rivojlantiradi. Beshinchidan, ta’lim va tarbiyaning uzviyligini ta’minlaydi. Mahdumi A’zam merosi asosida quyidagi konseptual modelni taklif etish mumkin: **Nafsni anglash → Nafsni tarbiyalash → Qalbni poklash → Ruhiiy yuksalish → Bag‘rikenglik → Ijtimoiy hamjihatlik → Komil inson**. Mazkur modelning har bir bosqichi zamonaviy pedagogik kompetensiyalar bilan bog‘lanadi:

Tasavvufiy bosqich	Pedagogik mazmun	Tasavvufiy bosqich	Pedagogik mazmun
Nafsni anglash	O‘z-o‘zini baholash kompetensiyasi	Bag‘rikenglik	Fuqarolik kompetensiyasi
Nafsni tarbiyalash	Emotsional intellekt	Ijtimoiy hamjihatlik	Ijtimoiy mas’uliyat
Qalbni poklash	Axloqiy kompetensiya	Komil inson	Integral shaxs modeli
Ruhiiy yuksalish	Ma’naviy refleksiya		

Ushbu model zamonaviy ta’lim tizimida, yoshlar orasida radikallashuvning oldini olish, ma’naviy immunitetni kuchaytirish, diniy bag‘rikenglikni rivojlantirish, millatlararo totuvlikni mustahkamlash, liderlik va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishda amaliy natijalarni ta’minlashi mumkin[11]. Mazkur model yoshlar tarbiyasida ma’naviy qadriyatlarni tizimli shakllantirish imkonini beradi. Pedagogik jihatdan ushbu model: refleksiv ta’lim, ma’naviy treninglar, debat va munozaralar, mentorlik tizimi, ma’naviy-ma’rifiy loyihalar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Amaliy tavsiyalar

1. Yoshlar orasida bag‘rikenglik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan trening dasturlarini ishlab chiqish.
2. Kelajak (tarbiyaviy, murabbiylik) soatlarida Mahdumi A’zam asarlaridan foydalanish
3. Magistratura va doktorantura bosqichlarida Mahdumi A’zam ta’limotining pedagogik imkoniyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish.
4. Yoshlarning ma’naviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan innovatsion metodik qo‘llanmalar yaratish.

Xulosa



Mahdumi A’zam Kosoniy ta’limoti bag’rikenglik va ma’naviy kamolot masalalarining chuqur falsafiy hamda tasavvufiy talqinini o’zida mujassam etadi. Mutafakkirning nafs, ruh va qalb haqidagi qarashlari insonning axloqiy yetukligi, ma’naviy poklanishi va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirishning konseptual asoslarini belgilaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, Mahdumi A’zam merosi zamonaviy ta’lim va tarbiya transformatsiyasi sharoitida bag’rikenglik madaniyatini rivojlantirish, yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlash hamda barkamol shaxsni tarbiyalashda muhim metodologik manba bo’lib xizmat qiladi. Shuningdek, mutafakkirning insonparvarlik, sabr-toqat, mehr-oqibat va ma’naviy mas’uliyatga oid qarashlari Yangi O’zbekistonning ma’naviy taraqqiyot strategiyasi bilan uyg’unlashib, yosh avlodni komil inson sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O’zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Maxdumi A’zam Dahbediy. Majmua ar-rasoil: risolalar to‘plami. – Toshkent: “Qamar-media” MChJ, 2020. – 616 b.
3. Maxdumi A’zam Kosoniy. Risolai bayoni silsila // Majmua ar-rasoil. – Toshkent: Qamar-media, 2020. – B. 261–276.
4. Maxdumi A’zam Kosoniy. Risolai sharhi ruboiyot // Majmua ar-rasoil. – Toshkent: Qamar-media, 2020. – B. 277–298.
5. Maxdumi A’zam Kosoniy. Risolai Zikr // Majmua ar-rasoil. – Toshkent: Qamar-media, 2020. – B. 299–324.
6. Maxdumi A’zam Kosoniy. Risolai Murshid us-solikin // Majmua ar-rasoil. – Toshkent: Qamar-media, 2020. – B. 79–142.
7. Maxdumi A’zam Kosoniy. Risolai voqeai haqqoniya // Majmua ar-rasoil. – Toshkent: Qamar-media, 2020. – B. 72–78.
8. Maxdumi A’zam Kosoniy. Risolai Odob us-solikin // Majmua ar-rasoil. – Toshkent: Qamar-media, 2020. – B. 528–560.
9. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr, 2009.
10. Hasanov B. Naqshbandiya ta’limoti va ma’naviy kamolot masalalari. – Toshkent: Fan, 2021.
11. Uraqov N.B. Maxdumi A’zam Kosoniy ta’limotida bag’rikenglik g’oyalarning tasavvufiy-falsafiy tahlili // Tamaddun nuri. – 2026. – №1 (76). – B. 42–49.